

“ISHBILARMON AYOL” KO’RIK-TANLOVNING XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

M.D.Kazakova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro davlat texnika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671646>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2016-yildan buyon O'zLiDeP tomonidan tashkillashtirilayotgan "Ishbilarmon ayol" respublika ko'rik-tanlovining Buxoro viloyatidagi bosqichlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Maqolada 2016–2021-yillar oralig'ida Buxoro viloyatida o'tkazilgan tanlov bosqichlari, natijalari, g'oliblari haqida aniq raqam va dalillar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zLiDeP, ishbilarmon ayollar, "Ishbilarmon ayol" tanlovi, tadbirkorlik, fermerlik, xotin-qizlar faolligi, Buxoro viloyati, iqtisodiy rivojlanish, ilg'or tajriba, ayollarni qo'llab-quvvatlash.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ayollarning tadbirkorlik sohasidagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadida turli tanlov va dasturlar yo'lga qo'yildi. Shu jumladan, 2016-yildan boshlab O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) tomonidan "Ishbilarmon ayol" nomli respublika ko'rik-tanlovi tashkil etilib, u ayollarning biznesdagi o'rnini mustahkamlash, ularni rag'batlantirish va ilg'or g'oyalarni targ'ib qilish yo'lida muhim tashabbusga aylandi. Ushbu maqolada aynan Buxoro viloyatida mazkur tanlovning o'tkazilishi, u orqali erishilgan natijalar va faol ayollar misolida yurt taraqqiyotiga qo'shilayotgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

2016-yildan boshlab O'zLiDeP tomonidan respublika miqyosida ishbilarmon ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularni birlashtirish maqsadida "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi tashkil etildi. Ushbu tanlov xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik va fermerlik faoliyatini rivojlantirish, ularning rahbarligidagi xo'jalik subyektlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish orqali tadbirkorlikning sifat jihatdan yuksalishiga ko'maklashish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Tanlov Buxoro viloyatida ham faoliyatini endi boshlagan tadbirkor ayollar uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilib, ularning iqtisodiy faolligi va tashabbuskorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Misol tariqasida, ko'rik-tanlovda o'tgan davr mobaynida 6 mingdan ziyod buxorolik xotin-qizlar ishtirok yetganligini qayd yetish mumkin¹.

"Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!" shiori ostida mustaqillikning 25 yilligiga bag'ishlab ilk marotaba "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi ta'sis qilindi². Ushbu tanlov faol, shijoatli, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkor va fermer xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilib, xotin-qizlarni partiya harakat dasturidan xabardor qilish, bu orqali esa partiya tarafdorlari safini yanada kengaytirishga xizmat qilishi ko'zda tutildi.

O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi tomonidan 2016-yil 20-iyulda "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Har bir shahar va tumanlardan munosib ko'rilgan 3

¹ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti.

² Ўзбекистон Либерал-демократик партияси Сиёсий Кенгаши Ижроия кўмитасининг 2016 йил 25 январдаги 01-08/16-сонли қарори.

nafardan ishtirokchilar Viloyat bosqichi g'olibligi uchun ishtirok etdi. Ishtirokchilar innovatsion loyihalari, "Eng yaxshi tadbirkor ayol" nominatsiyasi g'olibligini G'ijduvon tumani "G'ijduvon mashhurasini" xususiy korxonasi rahbari Zamira Xaydarovna Safarova, "Eng yaxshi fermer ayol" nominatsiyasi g'olibligini Jondor tuman "G'afurova Sidiqa Ziyodullayevna" fermer xo'jaligi rahbari Sidiqa Ziyadullayevna G'afurova, "Eng yaxshi hunarmand" nominatsiyasi g'olibligini G'ijduvon tumani yakka tartibdagi hunarmand, kashtachi Mavluda Ibodullayevna Narzullayeva, "Muruvvatli ishbilarmon ayol" nominatsiyasi g'olibligini Peshku tumani "Malishoyak" fermer xo'jaligi rahbari Sanam Jumayevaning fermer xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha erishgan yutuq va natijalari nusxalari, rasm va videolar "Baholash mezonlari" asosida xolis baholandi. 4 ta nominatsiya bo'yicha yuqori natijaga erishgan ishtirokchilar ko'rik-tanlovning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritishdi. Sanam Baqoyevna Jumayeva sovrindor sifatida yuqori baholandi va respublika bosqichiga chiqdi³. Ko'rik-tanlov ilk marotaba tashkil qilinganligiga qaramasdan tarixiy ahamiyat kasb etdi.

2016-yilda O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi a'zolari 13113 nafar kishi bo'lib, shundan xotin-qizlar 6194 nafar, ya'ni 47 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 17392 nafar kishi a'zo bo'lib, shundan 8390 nafarini, ya'ni 48 foizini xotin-qizlar tashkil qildi⁴.

2017-yil tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan, tashabbuskorligi va intilishi bilan ajralib turgan ishbilarmon ayollar uchun yangilanishlar davri boshlandi. Ayni shu davrda mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining soni 120 ming kishidan oshdi⁵.

"Ishbilarmon ayol-2017" Buxoro viloyati bosqichida "Zamonaviy tadbirkor ayol portreti" nominatsiyasida "Billur Tosh Fayz" oilaviy rahbari Nilufar Safarova, "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirayotgan fermer ayol" nominatsiyasida "Johongir-Muxritdin" fermer xo'jaligi rahbari Nodira Rajabova, "Tashabbuskor ayol" nominatsiyasida "Luks Buxaralayn" MChJ rahbari Umriya Ismailovalar g'olib deb topildi⁶.

2018-yilda "Ishbilarmon ayol-2018" respublika ko'rik-tanlovining Buxoro viloyati bosqichida "Zamin, Madad, Tayyorlov savdo" MChJ rahbari Mamlakat Sodiqova g'olib deb topildi. Tanlovda ikkinchi o'rinni "Omad, Baxt, Quvonch" MChJ rahbari H.Halimova, uchinchi o'rinni esa "Tadbirkor Business Center" rahbari Saboat Davronovalar egalladi⁷.

O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi Buxoro viloyat xotin-qizlari kengashi bilan hamkorlikda 2017-2019-yillar davomida "Ishbilarmon ayol", "Bunyodkor ayollar", "Sog'lom oila – mustahkam oila", "Durdona", "Farovon oila" kabi qator ko'rik-tanlov va tadbirlar tashkil qilindi⁸.

"Zamonaviy tashabbuskor ayol", "Yilning muruvvatli ishbilarmon ayoli", "Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishda faollik ko'rsatgan fermer ayol", "Investitsiyalarni jalb qilishda tashabbus ko'rsatgan ishbilarmon ayol", "Eng yosh, faol ayol tadbirkor" kabi yo'nalishlarda o'tkazilgan qariyb o'nga yaqin ko'rik-tanlovlar natijalariga ko'ra, viloyatda xususiy tadbirkorlik va fermer xo'jaliklari bilan shug'ullanayotgan faol ayollar munosib

³ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2016-yil ma'lumoti.

⁴ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2018-yil ma'lumoti.

⁵ https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ael_va_tadbirkorlik

⁶ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2017-yil hisoboti.

⁷ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2018-yil hisoboti.

⁸ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2019-yil hisoboti.

rag'batlantirildi, bu esa xotin-qizlar orasida tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishning yanada ortishiga xizmat qildi.

2019-yilda O'zbekiston mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida tashkil etilgan "Ishbilarmon ayol-2019" respublika bosqichi yakunlariga ko'ra, Buxoro viloyatidagi "Ark Travel" sayyohlik kompaniyasi rahbari Inobat Sunnatovna Karimova faxrli ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Inobat Karimova tomonidan 2019-yil davomida ingliz tilini yaxshi biladigan, yurtimiz tarixi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan yoshlarga mo'ljallangan 25 ta yangi ish o'rni yaratilgani e'tiborga molik bo'lib, bu holat xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi ijobiy amaliy natijalardan biridir.

"Ishbilarmon ayol-2020" ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi oldingilaridan tubdan farqli ravishda tashkil etildi. Sababi, O'zLiDeP tomonidan xotin-qizlarni oilaviy tadbirkorlikka, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlikka jalb etish hamda bandligiga ko'maklashish orqali yosh oilalarni himoya qilish, iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, ular tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarga pandemiya sharoitida e'tibor yanada kuchaytirildi. "Zamonaviy tashabbuskor ayol" nominatsiyasi bo'yicha viloyat bosqichida g'olib bo'lgan matolarga dizayn va ishlov berish bilan shug'ullanuvchi Hamdamova Dilafruz Sharipovna, respublika bosqichida "Yilning muruvvatli ish bilarmon ayoli" nominatsiyasi g'olibligini qo'lga kiritdi. U Peshku tumanida bugungi kunda 35 nafar xotin-qizlarni doimiy ish o'rni bilan band qilgan⁹.

2021-yil 10-avgust sanasida Buxoro shahrida bo'lib o'tgan "Ishbilarmon ayol-2021" ko'rik tanlovining viloyat bosqichida birinchi o'rinni "Fayz qurilish mollari" MChJ rahbari Dilorom Fayziyeva qo'lga kiritdi¹⁰. Xullas, "Ishbilarmon ayol" ko'rik tanlovida O'zLiDeP Buxoro viloyati xotin-qizlari faol ishtirok qilib kelmoqda.

Xulosa. "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi O'zLiDeP tashabbusi bilan boshlanganiga qaramay, u nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Buxoro viloyatidagi tanlovlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bu tashabbus orqali yuzlab ayollar tadbirkorlik va fermerlik faoliyatini yo'lga qo'yib, nafaqat o'z oilasining, balki jamiyatning taraqqiyotiga ham hissa qo'shmoqda. Tanlovlar davomida g'olib bo'lgan ayollar misolida, xotin-qizlarning qobiliyati, tashabbusi va irodasi yuksak natijalarga olib kelayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Keyingi yillarda ham ushbu tanlovlar davom ettirilib, ularning ko'lamini kengaytirish orqali ayollarni qo'llab-quvvatlash ishlari samaradorligi yanada oshib bormoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti.
2. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasining 2016-yil 25-yanvardagi 01-08/16-sonli qarori.
3. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2016-yil ma'lumoti.
4. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2018-yil ma'lumoti.

⁹ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2020-yil hisoboti.

¹⁰ O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2021-yil hisoboti.

5. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2017-yil hisoboti.
6. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2018-yil hisoboti.
7. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2019-yil hisoboti.
8. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2020-yil hisoboti.
9. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2021-yil hisoboti.
10. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ael_va_tadbirkorlik